



MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT TIZIMINING O'RNI

Bo'ribekova Gulsanam

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
ORCID: 0009-0001-8262-994X

Annotatsiya. *Transport tizimi milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu maqolada transport tizimi ommaviy tovar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, zamonaviy transport tomonidan ta'minlangan uzoq (deyarli cheksiz) masofalarga katta hajmdagi tovarlarni muntazam ravishda har qanday ob-havo sharoitida tez va xavfsiz yetkazib berish orqali savdo, sanoat o'sishi, bandlik va mintaqaviy rivojlanishga qo'shadigan hissasi tahlil qilingan. Bundan tashqari maqolada, transport turlarining ustunlik va kamchilik tomonlari hamda ularning tashqi savdo hajmidagi ulushlari tahlili olib borilgan. So'ngra temir yo'l transportining eksport salohiyatini oshirishdagi ro'li aniqlab berilgan hamda temir yo'l transportini rivojlantirish uchun takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *milliy iqtisodiyot, eksport, import, avtomobil transporti, havo yo'llari, temir yo'l transporti, tashilgan yuklar hajmi, tashqi savdo, iqtisodiy faoliyati.*

РОЛЬ ТРАНСПОРТНОЙ СИСТЕМЫ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ

Борибекова Гулсанам

Международная исламская академия Узбекистана

Аннотация. *Транспортная система является одним из важных факторов развития национальной экономики. В данной статье анализируется вклад транспортной системы в торговлю, промышленный рост, занятость и региональное развитие за счет повышения эффективности массового производства товаров, регулярной быстрой и безопасной доставки больших объемов товаров на большие (практически неограниченные) расстояния в любую погоду, обеспечиваемые современным транспортом. Кроме того, в статье анализируются преимущества и недостатки видов транспорта и их доля в объеме внешней торговли. Затем была определена роль железнодорожного транспорта в повышении экспортного потенциала и разработаны предложения по развитию железнодорожного транспорта.*

Ключевые слова: *национальная экономика, экспорт, импорт, автомобильный транспорт, воздушные маршруты, железнодорожный транспорт, объем перевезенных грузов, внешняя торговля, экономическая деятельность.*

THE ROLE OF THE TRANSPORTATION SYSTEM IN THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY

Boribekova Gulsanam

International Islamic Academy of Uzbekistan

Abstract. *The transport system is one of the important factors in the development of the national economy. This article analyzes the contribution of the transport system to trade, industrial growth, employment and regional development by improving the efficiency of mass goods production, regular rapid and safe delivery of large volumes of goods over long (almost unlimited) distances provided by modern transport in any weather. In addition, the article analyzes the advantages and disadvantages of the types of transport and their shares in the volume of foreign trade. Then, the role of railway transport in increasing the export potential was determined and proposals for the development of railway transport were developed.*

Key words: *National economy, exports, imports, road transport, airways, rail transport, volume of cargo transported, foreign trade, economic activity.*

Kirish.

Butun dunyoda sodir bo'layotgan globallashuv jarayonlarida transport infratuzilmasining ahamiyati kundan kunga ortib bormoqda. Ushbu sohaning faoliyatini takomillashtirish, rivojlantirish vazifalari Jahon transport va logistika tizimi (The global transport and logistic system) tomonidan amalga oshiriladi. 2023-yildagi "Transport xizmatlari global bozor hisoboti" ma'lumotlariga ko'ra, global transport xizmatlari bozori 2022-yildagi 7197,32 milliard dollardan 2023-yilda 7993,46 milliard dollargacha o'sdi va yillik murakkab o'sish sur'ati (compound annual growth rate) 11,1 foizni tashkil etdi. Butun dunyoda transport tarmog'ining ajralmas qismi bo'lgan temir yo'llar savdoni osonlashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu sektorning ishlashi nafaqat tovar savdosining global raqobatbardoshligiga, balki turizm kabi boshqa xizmat ko'rsatish sohasining ko'rsatkichlariga ham ta'sir qiladi. 11-sentabr 2023-yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-sonli "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmonida va 2023-yil 10-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi prezidentining "O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ-329-sonli qarorida temir yo'l transporti sohasini isloh qilish, sog'lom raqobat muhitini yaratish, sohaga xususiy sektorni keng jalb qilish, biznes jarayonlarini raqamlashtirish, boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish hamda respublikaning tranzit salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida temir yo'l transporti sohasini bosqichma-bosqich isloh qilishning ustuvor vazifalari belgilab berilgan.

Adabiyotlar sharhi.

O'rganish ob'ekti sifatida temir yo'l transportining alohida bo'linmalari yoki faoliyat turlari bo'yicha o'zaro bog'liq bo'lgan bo'linmalar va elementlar guruhlarini bo'yicha bo'lib o'rganish mumkin. Ya'ni ekspluatatsiya ishlari, transport mahsulotlarini ishlab chiqarish (tashish), mijozlarga transport xizmatlari va mintaqalar uchun transport xizmatlarini ko'rsatish, vagon parklarini yaratish va vagonlar sonini va sifatini oshirish, ularga xizmat ko'rsatish kabi guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin.

Temir yo'l transportining ishlab chiqaruvchi kuchlari butun jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarining bir qismi hisoblanadi. Ya'ni temir yo'l transporti tabiiy, matematik, texnikaviy-texnologik, geografik, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa fanlarning o'rganish obyektidir. Temir yo'l transportining iqtisodiyot va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni ko'plab olimlar tomonidan alohida ta'kidlangan.

Tadqiqotchilar temir yo'l transportining ishlab chiqarish rolini ta'kidlab, uni moddiy ishlab chiqarishning alohida sohasi - transport sanoati sifatida ko'rib chiqdilar, buning natijasida ishlab chiqarish sikli amalga oshiriladi (Чернышев, 2014).

Temir yo'l transportining rolini bozor iqtisodiyoti nazariyasi nuqtai nazaridan baholash uchun Nobel mukofoti laureati F.A.Fon Xayekning ta'kidlashicha, mavjud bo'lgan moddiy yashash vositalari va yashash sharoitlarining miqdoriy o'sishi ba'zi tovarlarning boshqa tovarlarga ko'rinadigan o'zgarishiga emas, balki ularning harakatlanish jarayoniga bog'liq bo'lishi mumkinligini aytib o'tadi (Anderson, 2017). Shu bilan birga, olimning ta'kidlashicha, tovarlarning qo'ldan-qo'lga o'tkazilishi ayirboshlash jarayonining barcha ishtirokchilari uchun ularning qiymatini oshirishi mumkin, buning natijasida inson ehtiyojlari mavjud resurslar bilan eng to'liq qondiriladi. Demak, aynan tovar ayirboshlash jarayoni, moddiy asosi temir yo'l transporti ijtimoiy farovonlikning o'sishini belgilab beradi.

Ilmiy tahlil shuni ko'rsatadiki, tovar ayirboshlashda jahon tendensiyasi bo'lgan transport masofalarining ortishi D.Rikardo tomonidan kashf etilgan qiyosiy ustunlik tamoyili asosida samarali mintaqalararo ixtisoslashuvni ta'minlash imkonini beradi (Samuelson, 2004). Bundan tashqari, transport xarajatlarining mavjudligi ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishni optimallashtirish uchun rag'bat bo'lib xizmat qiladi va shu bilan ularni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan tovarlar va resurslarning irratsional, haddan tashqari uzoq (iqtisodiy nuqtai nazardan) harakatini bartaraf etadi (Полянин, 2011). Natijada, ishlab chiqaruvchi kuchlarni hududlararo oqilona taqsimlash, samarali ishlab chiqarish ixtisoslashuvi bozor iqtisodiyoti mavjudligi va rivojlanishining asosiy omillaridan biri bo'lgan temir yo'l transportining faol roli bilan bozor o'zini-o'zi tartibga solish mexanizmlari asosida shakllanadi.

Milliy iqtisodiyotning jadal o'sishida transport infratuzilmasining o'rni beqiyosdir. Transport infratuzilmasi ichidan uzoq va katta hajmdagi yuklarni tashish uchun mo'ljallangan temir yo'l transportiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Temir yo'l transporti jahon iqtisodiy munosabatlari zanjirining asosiy bo'g'inidir. Temir yo'l transportining jadal rivojlanishi hamda samarali faoliyat yuritishi iqtisodiy o'sishning yuqori va barqaror sur'atlariga erishish, har qanday davlatning iqtisodiy yaxlitligi va xavfsizligini ta'minlash, xalq turmush darajasini oshirish uchun muhim omillardan biri hisoblanadi.

Ingliz faylasufi F.Bekon "Uch narsa xalqni buyuk va farovon qiladi: unumdor tuproq, faol sanoat va odamlar va tovarlar harakatining qulayligi" deb bejizga ta'kidlab o'tmagan. Transport tizimi bozor almashinuvi imkoniyatini yaratadi, bozor esa transportning rivojlanishini ta'minlab beradi.

O'zbek olimi Alisher Abduraimovich Temirqulov "Transport logistikasining iqtisodiy mohiyati" nomli maqolasida mamlakatda bozor iqtisodiyoti rivojlanib borar ekan, transport jarayonining samaradorligini oshirish transportni tashkil etishga yangicha yondashuvlarni talab etishini ta'kidlab o'tgan (Temirqulov, 2022).

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur ishimizda tizimli tahlil, ilmiy abstraktlash, guruhlashtirish, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, statistik va iqtisodiy tahlil usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Temir yo'l transportining jadal rivojlanishi jahon iqtisodiyoti yuksalishining muhim omillaridan biridir. Bu esa ommaviy tovar ishlab chiqarishni samaradorligini oshirish, zamonaviy transport tomonidan ta'minlangan uzoq (deyarli cheksiz) masofalarga katta hajmdagi tovarlarni muntazam ravishda har qanday ob-havo sharoitida tez va xavfsiz yetkazib berish imkoniyati bilan ta'minlaydi.


Transport logistika tizimining rivojlanishi ijtimoiy mehnat taqsimoti darajasini oshiradi. Bu orqali ijtimoiy ehtiyojlarni yanada to'liq qondirish va farovonlikni oshirish imkoniyati

mavjud bo'ldi. Transport tizimi orqali amalga oshiriladigan tovarlar almashinuvi jarayoni har bir hududning resurslarini eng samarali tovarlar ishlab chiqarishga jamlash imkonini beradi.

Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan farqli ravishda transport ishlab chiqarishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mamlakat yoki mintaqa Arabiston yarim oroli mamlakatlari kabi xom ashyo qazib olishga e'tibor qaratgan holda aksariyat tovarlarni import qilishi mumkin yoki Yaponiya kabi xom ashyosiz muvaffaqiyatli rivojlanishi mumkin ammo transportsiz iqtisodiy rivojlanish mumkin emas. Hozirgi vaqtda transport infratuzilmasi har bir mintaqada mavjud bo'lishi zarur va shartdir.

Transportning milliy iqtisodiyotga multiplikativ ta'sir etadi. Ya'ni, transport liniyasining qurilishi yer uchastkalari, biznes obyektlari va uy-joylarning moddiy qiymatini transport terminallariga yaqinligiga mutanosib ravishda darhol oshiradi. Milliy boylik nafaqat asosiy transport vositalarining ko'payishi, balki yangi transport liniyalarining paydo bo'lishi natijasida ham ulardan foydalanish qulayroq bo'lgan moddiy ne'matlar qiymatining oshishi hisobiga ham ortadi.

Transport turlarining rivojlanishi tovarlarni ayirboshlash va natijada ishlab chiqarishni samarali ixtisoslashtirish, ilg'or texnologiyalarni tarqatish imkoniyati bilan ta'minlab, ishlab chiqarish hajmini oshirishga, tovarlar narxini pasaytirishga va sifatini yaxshilashga, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar uchun foydani oshirishga yordam beradi.



1-rasm. Transportning tizimining iqtisodiy rivojlanishga qo'shadigan hissalari

Qurilish, savdo-sotiq, sanoat va qishloq xo'jaligi kabi asosiy tarmoqlar bilan bir qatorda transport sohasi ham mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida sanab o'tilgan tarmoqlar birgalikda yalpi ichki mahsulot va milliy daromadga ta'sir ko'rsatish, mamlakat yaxlitligini shakllantirish, iqtisodiy va milliy xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Hom ashyo materiallarining zavod, fabrikalarga yetkizilishidan homashyolarning tayyor maxsulotga aylanib istemolchisiga yetkazib berilgungacha transport sanoati alohida o'rin tutadi. Shu munosabat bilan bozor iqtisodiyoti sharoitida transport sohasining mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni va rolini belgilash juda muhimdir.

Transport tizimlari tovar va xizmatlar harakatini osonlashtiradi hamda ishlab chiqaruvchilarni iste'molchilar bilan bog'laydi. Rivojlangan transport tizimi tashish xarajatlari va vaqtini kamaytiradi, bu esa korxonalarining yirik bozorlarga kirishini osonlashtiradi.

Samarali transport tarmoqlari ta'minot zanjirlarini soddalashtiradi, logistika xarajatlarini kamaytiradi va kechikishlarni kamaytiradi. Bu samaradorlik o'z vaqtida yetkazib berish tizimlariga tayanadigan tarmoqlar uchun juda muhimdir. Hozirgi vaqtda transport logistikasi tizimi rivojlanayotgani tufayli ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga erishilmoqda va ishlab chiqarish kuchlarini optimal hududiy taqsimlash uchun sharoitlar yaratilmoqda. Buning uchun iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi korxonalarining mahsulot va xom ashyo manbalarini

eng to'g'ri yondashuvni hisobga olish kerak. Natijada qishloq xo'jaligi, savdo, mashinasozlik va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari rivojlanishiga erishiladi.

Transport sanoatining vazifalari jamiyat hayoti va faoliyatining asosiy ehtiyojlarini qondirish ya'ni tovarlarni samarali tashishni ta'minlash orqali ichki va xalqaro savdoni qo'llab-quvvatlaydi, shu bilan bozorga kirishni kengaytiradi va iqtisodiy o'sishni oshiradi. Bundan tashqari, rivojlangan transport tizimi xarajatlarini pasaytiradi, bu iste'molchilar uchun narxlarning pasayishiga va korxonalar uchun yuqori rentabellikka olib keladi. Transport tizimi jamiyat hayotining iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida eng muhim mexanizm bo'lib, uning yordamida belgilangan maqsadlarga erishiladi.

Jahonning integratsiyalashuv jarayonlari transport tizimi va transport xizmatlari sohasidagi iqtisodiy samaradorlikni o'sishini taqazo etmoqda. Bugungi kunda transport xizmatlarini ko'rsatishga dunyodagi band aholining 8 foizi, iqtisodiy xarajatlarning 15 foizi hamda yaratilgan yalpi mahsulotning 6 foizini to'g'ri kelmoqda. Bu transport xizmatlarini samarali tashkil etish, yangi ish o'rinlari yaratish va turdosh tarmoqlar faoliyatini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Xalqaro miqyosda temir yo'l transport xizmatlari bilan ta'minlash ham miqdor, ham sifat jihatidan alohida ahamiyatga egadir.

Zamonaviy iqtisodiy davrning asosiy ajralib turadigan xususiyati iqtisodiy o'sishning tezlashishi hisoblanadi. Iqtisodiy o'sishning bunday tezlashishiga inson faoliyatining barcha sohalarida innovatsiyalarni joriy etish tufayli erishildi va bu yerda temir yo'l transporti muhim rol o'ynadi.

Temir yo'l transportining paydo bo'lishi yirik sanoat taraqqiyoti, ayniqsa, tog'kon va metallurgiya sanoati taraqqiyoti bilan bog'liq. XVIII-asr oxiri va XIX-asr boshlarida kapitalizmning rivojlanishi yuk aylanmasi tuzilmasini tubdan o'zgartirdi, temir rudasi, ko'mir, qurilish materiallari va shu kabini ommaviy tashishga ehtiyoj o'sganligi temir yo'l transportiga bo'lgan ehtiyojning o'sishiga sabab bo'ldi.

Butun dunyoda birinchi bo'lib 1825-yil umumiy foydalanishdagi Stokton-Darlington temir yo'l (21 km, Angliya) J.Stefenson tomonidan qurilgan. 30-yillarda Avstriya, Germaniya, Belgiya, Fransiya, Rossiyada ham temir yo'l qurildi. 1850-70 yillarda Osiyo, Afrika, Janubiy Amerika va Avstraliyada xam qurila boshladi. 20-asr boshlarida jahonda temir yo'l tarmog'i 1 mln. km dan oshdi (railway.uz, 2024). 19-asr oxiri - 20-asr boshlarida temir yo'l tarmoqlarini tez rivojlantirgan sabablardan biri, uning katta harbiy strategik ahamiyatga egaligi bo'lib, Transport yo'li transport xo'jalik, iqtisodiy va strategik vazifalarga xizmat qilish bilan bir qatorda mamlakatlararo, hududlararo madaniy aloqalarni rivojlantirish, ijtimoiy masalalar, xalqaro turizm sohasida ham ishtirok etadi, mamlakatning ilmiy-texnik taraqqiyotiga ham salmoqli hissa qo'shadi. Temir yo'l transportining afzalliklaridan biri - boshqa transportga nisbatan yuk tashish qiymatining arzonligi, yilning har qanday faslida va bir yo'la katta hajmdagi yuklarni tashish imkoniyatiga egaligidir. Birinchi jahon urushi boshlanishiga kelib, temir yo'l tarmog'i 1,1 million km dan oshdi. Temir yo'l transporti jahon yuk aylanmasining qariyb uchdan bir qismini, ichki yuk tashishda esa 70 foizdan ortig'ini amalga oshirdi. Keyinchalik sekinroq suratlarda bo'lsaham temir yo'l tarmog'ining kengayishi davom etdi. Ikkinchi jahon urushi boshida u 1,3 million kmni tashkil etgan bo'lsa Hozirgi kunda "O'zbekiston temir yo'llari" AJ umumiy uzunligi 7500 kmdan oshdi.(2024 yil)¹³

O'zbekiston tashqi savdo ko'rsatkichlari yildan yilga oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasida tashilgan yuklar ko'rsatkichlariga tahlil shuni ko'rsatadiki, yildan yilga tashilgan yuklar hajmi ortib bormoqda. Bu o'z navbatida tashqi savdo aylanmasi bilan bog'liqdir. 2018-yilda jami transport turlarida tashilgan yuklar hajmi 1 243 million t-kmni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 178 million tonna-kmga oshgan. Eng ko'p yuklar avtomobil transportiga to'g'ri keladi. 2018-yilda jami tashilgan yuklarning 5% temir yo'l transportining ulushiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2022-yilgacha bu ulush o'zgarishsiz qolgan.


¹³ https://railway.uz/uz/gazhk/istoriya_zheleznykh_dorog/

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida transport turlari bo'yicha tashilgan yuklar hajmi¹⁴

O'zbekiston Respublikasida transport turlari bo'yicha tashilgan yuklar hajmi					
	2018	2019	2020	2021	2022
Jami transportda	1243	1319,8	1366,7	1420,2	1420,9
Temir yo'l transporti	68,4	70,1	70,6	72	73,4
Avtomobil transporti	1102,2	1177,7	1238,2	1282	1284,1
Havo yo'llari	13,1	10,4	5,3	9,1	10,2
Quvur yo'llari	72,4	72	57,9	66,2	63,5

Barcha transport turlarining tashilgan yuk hajmida eng yuqori ulush avtomobil transportiga eng kam ulush esa havo transportiga tegishlidir. 2022-yil transport turlarida tashilgan yuk hajmining taxminan 5 foizi temir yo'l transportida tashilgan bo'lsa 90 foizi avtomobil transportining ulushidir. Butun dunyoda temir yo'l orqali katta hajmdagi va uzoq masofalarga tashiladigan yuklarni tashish temir yo'l transportining ustunligidir. Har bir transport turning o'ziga yarasha ustunlik va kamchilik tomonlari ham mavjud. O'zbekistonda avtomobil transportida yuklarni tashish ommalashishiga sabab eshikdan eshikgacha xizmat ko'rsatishi va boshqa transport turlariga nisbatan kam xarajatliligidir. Quvur transportida tashilgan yuk xajmi hamda havo transportida tashilgan yuk hajmlari mos ravishda 4% va 1%ni tashkil etgan. Havo yo'llari orqali asosan tez aynuvchan yuklar tashilgan bo'lsa, quvur yo'li orqali esa neft, gaz kabi mahsulotlar tashilgan (2-rasm).

2-rasm. Tashilgan yuklarda transport turlarining ulushi¹⁵

Transport tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarini yanada rivojlantirish borasidagi harakatlarning ajralmas qismi bo'lmoqda. Transport tizimining rivojlanishi respublikamiz eksport salohiyatini yanada oshirish imkoniyatini beradi.

Xulosa va takliflar.

¹⁴ Davlat statistika qo'mitasi e'lon qilgan ma'lumotlariga asoslanib muallif tomonidan tuzilgan.

¹⁵ Davlat statistika qo'mitasi e'lon qilgan ma'lumotlariga asoslanib muallif tomonidan tuzilgan.

Mamlakat iqtisodiyotini samarali rivojlantirishda transport tizimi alohida ahamiyatga ega va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtadan nuqtai nazaridan, mamlakat iqtisodiyotining jadal o'sishi bevosita transport infratuzilmasi samaradorligiga bog'liq. Shuning uchun transport infratuzilmasini shakllantirish va yangi transport yo'laklarini barpo etish esa mamlakat oldidagi asosiy vazifalardan biridir.

Mamlakat infratuzilmasining tarkibiy qismi sifatida transport tarmoqlari va korxonalari yo'lovchi va yuk tashish xizmatlari (foydalanilayotgan transportning barcha turlari bo'yicha), murakkab tizim sifatida tarmoqni tashkil etuvchi, korxonalar tizimini umumlashtiruvchi transport yo'laklari bilan birgalikda transport infratuzilmasi ob'ektlarining samarali ishlashi va rivojlanishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biridir. Transport tizimi ham xizmat ko'rsatish sohalaridan biridir. Temir yo'l transporti mamlakatimiz ishlab chiqarish salohiyatiga katta ta'sir ko'rsatuvchi tarmoqlardandir. Temir yo'l transport tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish orqali katta hajmdagi yuklarni uzoq masofalarga xavfsiz va tez arzon narxlarda yetkazib berish kabi natijalarga erishiladi.

O'zbekistonda temir yo'l tarmog'idagi dolzarb muommalardan biri yuk va yo'lovchi tashish uchun yagona yo'ldan foydalaniladi. Bu esa o'z navbatida yuklarning tez yetkazib berilishiga, yo'llarning tez eskirishiga, transit yuklarning o'tkazuvchanlik qobiliyati pasayishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu muommoni bartaraf e'tish uchun xorij tajribasiga asoslangan holda, yo'llar qurishni xususiy sektorni jalb qilish yoki xusisiylashtirish kerak.

Adabiyotlar / Лумепамыра / Reference:

Anderson R. (2017) *Logistics and Economic Development: A Comprehensive Review*. *Journal of International Trade and Economic Studies*, Vol. 28, No. 2. Pages: 87-105.

Samuelson P.A. (2004) *Where Ricardo and Mill rebut and confirm arguments of mainstream economists supporting globalization* // *Journal of Economic perspectives*. – T. 18. №. 3. – C. 135-146.

Temirqulov A.A. (2022) *Transport logistikasining iqtisodiy mohiyati* // *Scientific progress*. – T. 3. – №. 1. – C. 1110-1120.

Полянин Андрей Витальевич (2011) *Теории размещения производительных сил и экономика регионов* // *Экономика и управление*. №5 (67).

Чернышев А.А. (2014) *О роли железнодорожного транспорта в развитии экономики и общества* // *Транспортное дело России*. – №. 1. – C. 93-95.